



BERDAQNING XALQ UCHUN AMALGA OSHIRGAN XIZMATLARI SHARHI

Norbo'tayeva Muxlisa

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18586965>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-fevral 2026 yil
Ma'qullandi: 08-fevral 2026 yil
Nashr qilindi: 10-fevral 2026 yil

KEYWORDS

Berdaq, falsafa, hayot, Qur'on, she'r, shoir, tafakkur.

ABSTRACT

Mazkur maqolada qoraqalpoq xalqining mashhur shoiri va mutafakkiri Berdaqning hayot yo'li, og'ir ijtimoiy sharoitda voyaga yetgani hamda xalq uchun amalga oshirgan ma'naviy xizmatlari yoritilgan. Maqolada shoirning kambag'al oilada tug'ilib, diniy maktab va madrasada ta'lim olgani, bu holatlar uning hayotga va jamiyatga bo'lgan falsafiy qarashlarining shakllanishiga ta'sir etgani ko'rsatib beriladi. Shuningdek, Berdaq ijodida xalqning og'ir turmush sharoiti, kambag'allik va adolatsizlik masalalari "Yoz kelarmi", "Bizlarga yordam ber" kabi asarlar misolida tahlil qilinadi. Maqolada shoirning diniy-falsafiy qarashlari, Xudo, taqdir va hayot mazmuni haqidagi fikrlari, shuningdek, Sharq mutafakkirlari va falsafiy meros bilan bog'liq qarashlari yoritiladi. Tadqiqot natijasida Berdaq xalq manfaatini himoya qilgan, ma'naviy va falsafiy qarashlari bilan xalq ongini shakllantirishga xizmat qilgan ijodkor sifatida baholanadi.

Ota-bobolari qishloqning eng kambag'al odamlaridan bo'lgan, uyi ham, molu-mulki ham, amali ham bo'lmagan. Uning otasi Qarg'aboyning birinchi xotini vafot etganidan so'ng u to'rtta yosh farzandlari bilan qoladi va o'zi bu bolalarni yolg'iz eplay olmasdi, shuning uchun unga bir turmush o'rtoq zarur edi. Bu kambag'al insonni uylanishi ham qiyin edi. Chunki u davrda kelinning qalin pulini beradigan sharoitda emas edi. U o'ziga o'xshagan bir kambag'al ayolni topib, uylandi. Uning ikkinchi ayolidan bizning taniqli shoirimiz dunyoga keldi. Uning uch aka-ukalari bor edi bular: Fozilbek, Berdibek, Kalibeklardir. Berdaqning ulg'ayish sharoiti, atmosferasi uning hayotga bo'lgan falsafiy qarashlarini shakllantirgan desak adashmagan bo'lamiz.¹

Asosiy qism

¹ И.Сагитов. Бердахтын творчествосты. Нукус. 1977. 57-б.

Berdaq o'n yoshga yetganidan so'ng, diniy maktabga boradi, maktabni tamomlagach u katta o'qishga ya'ni, "Qoraqum eshon" madrasasiga o'qishga kiradi. Ushbu madrasa Qoraqalpog'istonning shimolida joylashgan edi.

Berdaq "Yoz kelarmi" degan qo'shig'ida o'zining turmush ahvoli haqida:

Yovganim yo'q ichmakka,
Ko'ligim yo'q ko'chmakka.
To'shak yo'q to'shamakka,
Sho'rli elga yoz kelarmi.

- - -

Cho'zilib yotar uyim yo'q,
Egninga tortar kiyim yo'q,
To'qlardan bizga buyum yo'q,
Biz sho'rlikka yoz kelarmi.

Yuqoridagi she'r orqali shoirning og'ir turmush kechirganini bilib olish qiyin emas.

Berdaq o'z xalqining ziyolisi, bilimdon insoni bo'lishiga qaramasdan, o'sha davrda hech kim uni taqdirlamadi, ulug'lamadi, hattoki hurmatga ham ega bo'lmadi. Bu haqda u o'zining yuqorida keltirilgan "Bo'lgan emas" asarida yozib o'tgan.

Berdaq diniy ta'limotlarni ustun qo'yuvchi inson edi. Uning nazdida falsafada eng dolzarb masal olamning yaralishi edi. Ya'ni Xudo bu olamni yaratganmi, yoki abadiy mavjud bo'lganmi? To'rt element haqidagi ma'lumotni Berdaq Mirzo Bedilning kitoblaridan o'qiganini bilsak bo'ladi. Berdaq Mirzo Bedilni, Navoiyni, Fuzuliyini, Aritotel va Platonni o'zining "Izlardim" degan asarida eslatgan. Berdaqning aytishicha u Bedilning hamma asarlari bilan tanishib chiqqan.²

Chidam bilan bog'lab belni,
Izlab Qo'ng'irot, Xitoyini elini,
Kechib daryo, dengiz, ko'lni,
To topguncha izlar edim....

Ma'lumki ko'pgina mashhur arab faylasuflari, yunon faylasuflarining falsafiy merosi bilan ham yaxshi tanish edilar. Bazilari Aristotelni, Pifogorni, Platonni, Ptolomeyni va boshqa faylasuflarini ilmiy ishlarini arab va fors tiliga tarjima qilganlar. Bunda eng muhim o'rinda faylasuflarimiz va olimlarimizdan ya'ni: Farobiy, Ibn-Sino va boshqalar bo'lgan. Yunon faylasuflari Fales, Anaksimand, Geraklit va boshqalari stixiya materyalistlari bo'lganlar. Ular dunyo paydo bo'lishiga material substansiya asos qilib qo'ygan deb o'ylaganlar. Masalan: Fales "suv" ni asos qilib olgan. Anaksimand, Apeyron, Geraklit esa "olov"ni iloh deb o'ylaganlar.

Berdaq esa hayotni Xudo yaratgan deb fikrlagan, lekin bazan u bunga gumonsiragan, u uning hayoti oldindan aniqlanmaganidan, uning o'tgan hayoti, kelajagi, xursandchiliklari oldindan Xudoning aytgani bilan uning taqdiri yozilganidan shubhalangan.³

² Berdaq. Tanlangan asarlar. T.1987. b 42.

³ Бердах. Танламалы шыгармалар жыйнагы. Нукус. 1977. 99-b.

Islom mafkurasi insonni shunday tarbiyalaganki, kimki Xudo borligiga ishonsa va uning aytgan amallarini bajarsa haqiqiy musulmon bo'ladi. Xudo albatta adolatsizlikdan ranjigan bandasini yoniga keladi va o'z bandasini har doim suyishini shu bandada ham namoyon qiladi. Bandasini ranjitgan insonni esa, albatta jazolaydi. Berdaq esa bunga qo'shilgan va buni to'g'ri deb hisoblagan. U hayotiy ijtimoiy dalillarni misol keltirgan. O'zining "Bizlarga yordam ber" she'rida shoir Xudoga murojat qilgan. Berdaqning aynan shunday Xudoga murojat qilishi uni diniy odamlarni oldida oqlaydi. Chunki she'r Xudoni unutmaganligini keyingi vaziyatlarda Xudoni eslashini bu she'r orqali bildiradi. Berdaqning "Bizlarga yordam ber" degan she'ri Umar Xayyomning ya'ni fors shoirining ruboisi bilan o'xshashlidir. Berdaq "Bizlarga yordam ber" degan asarida odamlarga, xalqqa, islomning boshqa tomonlarini ham ko'rsatgan. Ma'lumki o'z vaqtida Umar Xayyom ham shunday asarlari uchun uni mullalar va islomiylar tinch qo'yishmagan edi. Umar Xayyom din va uningurf-odatlarining ijtimoiy mohiyatini fosh etib, din hukmron doiralar, ruxoniylarqo'lida qul qilish quroli ekanini takidlaydi. Bu haqda u shunday deydi:

Masjidu, butxona qullik demakdir,
Qo'ng'iroq- tarona qullik demakdir,
Mehrobu kaliso, tasbehu salib,
Barchasi nisxona qullik demakdir.

Bundan tashqari Berdaq Navoiyning falsafiy qarashlarini yaxshi o'rgangan va o'z falsafiy qarashlarida o'xshashlik borligini bilgan edi. Chunki Berdaq ham Navoiy kabi har bir odam o'zi uchun tabiat tomonidan belgilanganyuksak vazifa va martabani anglagan holda ish tutishi kerak deydi. Uning yurish-turishi, xatti-harkati, maqsad va niyatlari insoniylikning baland darajasiga munosib bo'lishi shart. Shoir aytadiki inson qadr-qimmatini, shaxsiyfazilatlarini har narsadan ustun qo'yar ekan, inson zotiga mansublikning o'zi kishini ulug' qilishni alohida takidlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Falsafa qomusiy lug'at, Toshkent, Sharq- 2003.
- 2.Berdag. Tanlangan asarlar. T.1987. b 42.
- 3.И.Сагитов. Бердагтын творчествосты. Нукус. 1977.
- 4.Бердах. Танламалы шыгармалар жыгйнагы. Нукус. 1977. 99-b.
- 5.Из философского наследия народов Востока. Изд. «Фан» Уз. Ташкент. 1982.
- 6.<http://www.berdaq.com>
- 7.www.ziyonet.uz